

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bitiruvchisi**

Mahmudova Mohinurning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: «O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimcha va
o'zgartirishlar»**

Ilmiy rahbar:

dots.Raupov S.S

“Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari”
kafedra yig'ilishida muhokama qilinib,
himoyaga tavsiya etilgan.

“12” may № 8 sonli bayonnoma

Kafedra mudiri [signature] dots. Raupov S.S

BUXORO – 2015

Бухоро Давлат Университети

Иттиҳомий-иқтисодий факультети
Масъ. тоғ. марн. асослари ва ҳуқуқ таълим йўналиши
битирувчиси Махмудова Моҳиш нинг
(Ф.И.Ш.)

"Ўқиб-ёзиб-қўлини қўйиб-қўлини қўйиб"

Мавзусидаги битирув малакавий ишига ДАКнинг

Хулосаси

Бухоро Давлат Университети ДАК Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги БМИ ни бажариш ҳақидаги 31.12.98 йил 362-сонли буйруғи билан тасдиқланган низомга асосан қуйидагиларни аниқлади:

1. БМИ нинг ҳажм ва талаб бўйича расмийлаштирилганлиги (меъёр: табиий йўналишлар – 50 бетдан, ижтимоий йўналишлар – 70 бетдан кам бўлмаслиги керак): талабга жавоб беради – 10 балл, талабга қисман жавоб беради – 7 балл, талабдан четга чиқиш ҳолатлари мавжуд – 4 балл.
2. Мавзунинг давлат ва университет грант дастурлари асосида ёки долзарб муаммолар бўйича танланганлиги: давлат дастурига кирган – 8 балл, грант лойиҳаси бўйича – 7 балл, БухДУ дастури бўйича – 6 балл, долзарб муаммолар бўйича – 5 балл.
3. Мавзу долзарблигининг асосланганлиги: етарли даражада асосланган – 5 балл, етарли даражада асосланмаган – 3 балл, ноаниқ – 2 балл.
4. Мақсад ва вазифаларнинг аниқ ифодаланганлиги: аниқ – 7 балл, тўлиқ аниқ эмас – 5 балл, аниқ эмас – 3 балл.
5. БМИ бажаришда илмий текшириш методларидан фойдаланганлик даражаси: тўла – 7 балл, қисман – 5 балл, етарли эмас – 3 балл.
6. Олинган натижаларнинг янгилиги ва ишончилиги даражаси: натижа янги – 8 балл, илгари олинган – 6 балл, тўла ишончли эмас – 3 балл.
7. БМИ нинг хулоса қисмда ишлаб чиқаришга тавсиялар берилганлиги: бевосита ишлаб чиқаришга тавсияси бор – 6 балл, ижтимоий соҳада қўллашга (таълим, атроф – муҳитни ҳимоя қилиш, маънавий – маърифий...) тавсия қилинган – 5 балл, тавсия йўқ – 3 балл.

“Миллий ғоя, ҳуқуқ ва маънавият асослари” кафедрасининг

1-сон баённомасидан

К Ў Ч И Р М А

29.08.2014.

Қатнашдилар:

Кафедра мудири: т.ф.н., доц. С.С.Раупов

Доцентлар: ю.ф.н. доц. Ў.С. Очилов, ф.ф.н., доц. Н.Н.Тешаев, доц. Р.Э. Қиличев, с.ф.н. доц. А.А.Болтаев, ю.ф.н. доц. М.З.Эргашева

Катта ўқитувчилар: М.К.Орипова, Ў.Р.Қурбонов, М.К. Жанобилова, Ф.Ш.Абдуллаева, У.Б. Собиров, И.Х. Шоев, А.Қ. Ширинов

Ўқитувчилар: Ш.Н.Аминов, Н.Б.Махмудова, Д.Х. Қодиров, Ш.Ш.Шаропов, Д.Қ.Сайфуллаева Н.О.Жўраева, А.Х.Болтаев, С.С.Самадова, Ш.К.Махмудов.

КУН ТАРТИБИ

5. Битирув малакавий иш мавзуларини тасдиқлаш тўғрисида.

Кафедра йиғилиши қарор қилади

1. “4” Б гуруҳ талабаси Махмудова Моҳинурнинг битирув малакавий иши мавзуси « Ўзбекистон Республикаси Конституциясига киритилган қўшимча ва ўзгартиришлар.» деб тасдиқлансин.

2. Илмий раҳбар қилиб доцент **Раупов С.С** тасдиқлансин.

Кафедра мудири:



доц. Раупов С.С.

Котиба:

Жўраева Н.О.

**“Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими” кафедраси
йигилиши баённомасидан**

КЎЧИРМА

Баённома 8 сон

12 май 2015 йил

Қатнашдилар:

Кафедра муdiri: т.ф.н., доц. С.С.Раупов
Доцентлар: ю.ф.н. доц. Ў.С. Очилов, ф.ф.н., доц. Н.Н.Тешаев, доц. Р.Э. Қиличев, с.ф.н., доц. А.А.Болтаев
Қатта ўқитувчилар: М.К.Орипова, Ў.Р.Қурбонов, М.К. Жанобилова, Ф.Ш.Абдуллаева, У.Б. Собиров, И.Х. Шоев, А.Қ. Широшов
Ўқитувчилар: Ш.Н.Аминов, Н.Б.Махмудова, Д.Х. Қодиров, Ш.Ш.Шаропов, Д.Қ.Сайфуллаева Н.О.Жўраева, А.Х.Болтаев, С.С.Самадова, Ш.К.Махмудов.

КУН ТАРТИБИ

1. “Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими” йўналиши 4 Б курс талабаларининг битирув малакавий ишларининг дастлабки ҳимояси.

Кафедра йигилиши қарор қилади

2. “4” Б гуруҳ талабаси Махмудова Моҳинурнинг « Ўзбекистон Республикаси Конституциясига киритилган қўшимча ва ўзгартиришлар » мавзусидаги битирув малакавий иши талабга жавоб беради, у синов ҳимоясидан ўтди деб ҳисоблансин ва расмий ҳимояга тавсия этилсин.
3. Махмудова Моҳинурнинг битирув малакавий ишига расмий тақризчи сифатида Миллий ғоя, ҳуқуқ ва маънавият асослари кафедраси доценти Болтаев А.А тайинлансин.

Кафедра муdiri:  **доц. Раупов С.С.**

Котиба:  **Жўраева Н.О.**

Кафедра йиғилишида тасдиқланган

(Баённома №1, 2014 й. 29 август)

Кафедра мудирининг т.ф.н.доц. Раупов С.С

“Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими” йўналиши талабаси
Маҳмудова Моҳинурнинг «Ўзбекистон Республикаси Конституциясига
киритилган қўшимча ва ўзгартиришлар» мавзусидаги битирув-малакавий
ишнинг амалга ошириш режаси

№	Топшириқнинг мазмуни	Бажарилиши муддати	Масъул	Изоҳ
1	«Ўзбекистон Республикаси Конституциясига киритилган қўшимча ва ўзгартиришлар» мавзусининг тахминий режасини тузиш	10.09.14 12.09.14	т.ф.н.доц. Раупов С.С Маҳмудова М	
2	Танланган мавзу юзасидан чоп этилган асосий адабиётларни ўрганиш	15.09.14 24.09.14	Маҳмудова М	
3	Режага қўйилган масалаларга оид материалларни туркумлаш	10.09.14 19.10.14	Маҳмудова М	
4	Битирув малакавий ишнинг кириш қисмини ёзиш	21.10.14 30.12.14	Маҳмудова М	
5	Битирув малакавий ишнинг биринчи бобини ёзиш	12.01.15 10.02.15	Маҳмудова М	
6	Битирув малакавий ишнинг иккинчи бобини ёзиш	15.02.15 20.02.15	Маҳмудова М	
7	13 - сон Умумий ўрта мактабнинг 5-6-7- синфида ўтиладиган “Миллий ғоя” ва «Конституциявий ҳуқуқ» фанларидан битирув малакавий иши материалларидан фойдаланиш имкониятларини ўрганиш ва тажрибадан ўтказиш	23.02.15 29.04.15	Маҳмудова М	
8	Битирув малакавий ишнинг муҳокамаси тайёрлаш ва биринчи вариантнинг илмий раҳбар қўришга ҳавола этиш	14.03.15 2.04.15	Маҳмудова М	
9	Битирув малакавий ишнинг якуний вариантини тайёрлаб кафедра ҳимоя олди муҳокамаси	18.04.15 21.04.15	Маҳмудова М	
10	Битирув малакавий ишнинг асосида мақола тайёрлаш ва кафедра илмий мақолалари тўпламига топшириш	26.03.15 12.04.15	Маҳмудова М	

Илмий раҳбар:

т.ф.н.доц. Раупов С.С

Битирувчи талаба:

Маҳмудова М

Buxoro Davlat Universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq talimi" yo'nalish bitiruvchisi Mahmudova Mohinurning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAVSIYANOMA

Bitiruvchi talaba Mahmudova Mohinur davlatning bosh qomusi bo'lgan Konstitutsiya hamda unga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarni to'liq o'rganib bitiruv malakaviy ishini ishlab chiqdi.

Kirish qismida bitiruvchi mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalarini batafsil manbalar asosida yoritilgan.

Ish kirish, 2 bob, 4 fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning 1-bobida Konstitutsiya tushunchasi va uning tarixi, O'zbekistondagi demokratik jarayonlarning konstitutsiyada ifodalanishi masalalari haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Ishning 2-bobida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" va konstitutsiyaviy islohotlar zarurati hamda shu konsepsiya asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar va uning qonuniy asoslari haqidagi masalalar tahlil qilingan.

Ishning xulosa qismida bitiruv malakaviy ishning barcha qismlarini umumlashtirgan holda o'z xulosaviy mulohazalarini va takliflarini bergan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida bitiruvchi prezidentimiz I.A.Karimov asarlaridan, Oliy Majlis qonunchilik palatasi axborotnomalari, gazeta va jurnallardagi ilmiy maqolalardan va boshqa huquqiy adabiyotlardan foydalangan.

Bitiruvchi talaba Mahmudova Mohinur tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar" mavzusidagi bajarilgan bitiruv malakaviy ishi tugallangan va himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy raxbar:



Raupov.S.S

Buxoro Davlat Universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 4-bosqich talabasi Mahmudova Mohinurning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusi hozirgi davrda ijtimoiy-huquqiy fanlarning muhim va dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Mazkur ishda

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarixi, qabul qilinish jarayoni, uning amalga tadbiq etilishi va Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar yoritib berilgan.

"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar" mavzusida tayyorlangan bitiruv malakaviy ishi – kirish, ikki bob, 4ta qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida bitiruvchi mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalarini batafsil manbalar asosida yoritgan.

Birinchi bob "Konstitutsiya va demokratik jarayonlar" deb nomlangan bo'lib, u Konstitutsiya tushunchasi, uning tarixi va jamiyatimiz hayotida tutgan o'rnini o'rganuvchi maxsus adabiyotlar asosida yoritib berilgan.

Ikkinchi bob "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi " va konstitutsiya deb nomlangan, ushbu bobda 2010-yil 12-noyabrda e'lon qilingan konsepsiya va unda muhokama qilingan masalalar ,ularning yechimi, prezidentimiz tomonidan kiritilgan takliflar hamda ularning konstitutsiyada ifodalanilishi masalalari bayon etilgan.

Mahmudova Mohinurning bitiruv malakaviy ishi prezidentimiz I.A.Karimov asarlari,Oliy Majlis qonunchilik palatasi axborotnomalari hamda normativ huquqiy hujjatlarga tayangan holda aks ettirilgan. Ishdagi barcha masalalar yetakchi huquqshunos olimlarimizning ilmiy adabiyotlari, xorijiy huquqshunos olimlarning fikrlari bilan va talabaning mustaqil fikr yuritishi asosida taqqoslash va qiyoslash usullaridan foydalanib tadqiq etilgan.

Ishni yozish paytida bitiruvchi turli adabiyotlar, maqolalar va internet ma'lumotlaridan keng foydalangan.

Ishda yutuqlar bilan birga ba'zi bir kamchiliklar ham mavjud. Ishda mavzuning dolzarblik darajasi yanada kengroq tahlil qilinganda yaxshiroq bo'lar edi. Ishdagi ayrim imloviy kamchiliklar tuzatilib, o'rganilayotgan muammolarda talabaniq mustaqil fikri yanada kengroq bayon etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bulardan tashqari har bir bob oxirida qisqacha xulosalar berish tavsiya etiladi.

Ammo bu juz'iy kamchiliklar bitiruv malakaviy ishning saviyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman ish bitiruv malakaviy ishlarga qo'yiladigan talablarga to'la javob beradi va uni himoya qilish mumkin deb hisoblayman.

Taqrizchi:



BuxDU" Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedra o'qituvchisi Boltayev .A.A

Buxoro Davlat Universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 4-bosqich talabasi Mahmudova Mohinurning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Mahmudova Mohinurning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rt paragrafni o'z ichiga olgan ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, uning o'rganilish darajasi yoritilgan. Mavzuni o'rganishda maqsad va vazifalar belgilangan.

"Konstitutsiya va demokratik jarayonlar" deb nomlangan birinchi bobda Konstitutsiya tushunchasi, uning tarixi va jamiyatimiz hayotida tutgan o'rni haqidagi fikrlar yoritib berilgan.

"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" va konstitutsiya deb nomlangan ikkinchi bobda 2010-yil 12-noyabrda e'lon qilingan konsepsiya va unda muhokama qilingan masalalar, ularning yechimi masalalari bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mavzuni o'rganish jarayonida yuzaga kelgan fikrlar, amaliy takliflar bayon etilgan.

Buxoro Davlat Universiteti Ijtimoiy -Iqtisodiy fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi bitiruvchisi Mahmudova Mohinurning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi va uni ijobiy baholash mumkin deb hisoblayman.

Tashqi taqrizchi :



7-son umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix va huquq fani o'qituvchisi Abdullayeva SH.M

Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan
qo'shimcha va o'zgartirishlar.

Reja:

KIRISH.

I.Konstitutsiya va demokratik jarayonlar.

I.1. .Konstitutsiya tushunchasi va uning tarixi.

I.2. O'zbekistondagi demokratik jarayonlarning Konstitutsiyada ifodalanishi.

II. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi " va Konstitutsiya.

II.1"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi " va konstitutsiyaviy islohotlar zarurati.

II.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar va uning qonuniy asoslari.

XULOSA.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzazrbligi. O‘zbekiston Respublikasida chuqur ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshirilmoqda, milliy ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlar bor-gan sari ko‘proq namoyon bo‘lmoqda, insonning huquqlari va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni ko‘zda tutgan huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayoni kechmoqda.

Insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan huquqiy demokratik jamiyat barpo etish va uni mustahkamlash xalqimiz uchun ezgu maqsaddir.

Konstitutsiya shunday yuridik hujjatki, uning qoidalari hamisha hukmronlik, birinchilik, ta’sis kuchiga ega. Boshqa qonunlarning hammasi konstitutsiyaviy me’yorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi, ro‘yobga chiqaradi. Uning asosida barcha me’yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi. Konstitutsiyamizning fazilati, o‘ziga xos jihati shundaki, u xalqimizning irodasini, ruhiyati, ijtimoiy ongi va madaniyatini o‘zida aks ettirgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllantirilgan va sayqal toptirilgan madaniy qadriyatlari, fazilatlari, tarixiy va milliy an’analari, sharqona donoligi va tafakkuri xazinasini durdonalari mujassam bo‘lib, o‘zining huquqiy ifodasini topgan. O‘zbekiston Konstitutsiyasining yaratilishida umuminsoniy qadriyatlardan, inson huquqlari haqidagi umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy qoidalari hamda turli mamlakatlar va davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalaridan ham keng foydalanildi.

“...Bizning Konstitutsiyamiz haqiqatan ham demokratik Konstitutsiyadir. Tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan hujjatdir... Konstitutsiya eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning

tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan, u dunyo miqyosida ham har qanday ilg'or davlat Konstitutsiyasi bilan bermalol kuch sinashmoqda”¹

Prezident Islom Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, Konstitutsiyamizga O'zbekistonda istiqomat qilayotgan insonlarning dunyoqarashini, ularga xos o'zaro munosabatlarni, xususiyatlarni, mehr-oqibat, odamiylik, o'zga millat va elatlarga nisbatan hurmat, ilmu fanga intilish, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlar asos qilib olingan va u tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik kabi ulug' g'oyalarga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ijobiy jihatlari, tamomila yangi tomonlari bilan avvalgi Konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. Konstitutsiyani o'rganish jarayonida ana shu masalaga jiddiy e'tibor berish zarurligini alohida ta'kidlash zarur.

Konstitutsiya tushunchasini ochib berishda uning mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlardan turli huquqiy oqimlar vakillari Konstitutsiya mohiyatini turlicha ta'riflaydilar. Masalan, tabiiy huquq maktabi vakillari Konstitutsiya – xalq (millat)ning umumiy irodasini ifodalovchi o'ziga xos ijtimoiy shartnomadir deydilar. Normativ huquq nazariyasi vakillari esa Konstitutsiya bu oliy huquqiy normaning ifoda bo'lishidir deb tushunadilar. Marksizm-leninizm Konstitutsiyani sinfiy kurashning mahsuli sifatida baholaydi. Mening fikrimcha, Konstitutsiya – umuminsoniy huquqiy qadriyatlarni eng umumlashgan in'ikosidir.

1992-yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamiz dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren davlat – mustaqil O'zbekiston Respublikasi bunyod etilganligini qonunan mustahkamladi.

Prezidentimiz O'zbekiston Konstitutsiyasining o'ziga xosligi, sobiq tuzum davridagi Konstitutsiyadan farqi nimadan iboratligini quyidagicha ifodaladi:

“Avvalam bor, bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham

¹ U.Tadjixonov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: “Sharq”, 2001, 85-86-betlar.

yo‘q. Jamiki dunyoviy ne‘matlar orasida eng ulug‘i – inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda “fuqaro-jamiat-davlat” o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik.”¹

Ma‘lumki, mustaqillikning o‘tgan qisqa tarixiy davrida mamlakatimiz ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ham tub islohotlar izchil amalga oshirildi. Hur O‘zbekiston erkin demokratik konstitutsiyaviy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishdek buyuk maqsad sari o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘lidan bormoqda. Prezidentimiz aytganlaridek, “Bizning Qomus demokratik konstitutsiyalarga qo‘yiladigan yuksak talablarga javob beradi, inson hamda fuqaroning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini kafolatlaydi”²

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq fuqarolarning haq-huquqlari, salomatligi, tinch-osoyishta turmush kechirishi, farovonligi-inson omili bosh masala sifatida dolzarblik kasb etdi. Bu esa Konstitutsiyamizning deyarli hamma moddalarida o‘z aksini topdi. Men mazkur bitiruv malakaviy ishda konstitutsiyaviy o‘zgartirishlar va uning qonuniy asoslanishi hamda jamiyatimiz hayotiga tadbiq etilishi masalalariga e‘tiborimni jalb etdim. Bu esa ishimning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Konstitutsiyani o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar juda ham ko‘p bo‘lib ularni shartli ravishda 2 guruhga bo‘lish mumkin. Xususan bevosita konstitutsiyani o‘rganuvchi adabiyotlar³ hamda boshqa mavzularni o‘rganish jarayonida konstitutsiyani o‘rganuvchi adabiyotlar⁴.

¹ Islom Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T., “O‘zbekiston”, 1996, 124-bet.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma‘ruzasi. // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T., 1996, 48-49-betlar.

³ Tansiqboyeva G.M., Muhammedjonov O.Z. Konstitutsiya va biz. T.: “Adolat” 1997

Fayziyev M. O‘zbekiston Konstitutsiyasining mohiyati (o‘quv qo‘llanma). T.: “Adolat” 1998

O‘razayev SH.Z. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi. T.: “Adolat” 1995

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – davlat va jamiyat islohotining huquqiy asosi. Ilmiy amaliy konfrensiya materiallari. 2002

⁴ Odilqoriyev X.T Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati T.: “Sharq” 2002

Saidov A, Sultonov S O‘zbekiston Konstitutsiyasi va inson huquqlari. T: 1999

Saidov A H. Jahon Konstitutsiyaviy amaliyoti va O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni. T: 1992.

Bitiruv-malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni chuqur o'rganish hamda tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun belgilangan vazifalar quyidagilar:

- Konstitutsiya tushunchasi va uning tarixini o'rganish
- O'zbekistondagi demokratik jarayonlarning konstitutsiyada qay darajada ifodalanganligi va uning ahamiyatini tahlil qilish.
- "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi " va konstitutsiyaviy islohotlar zaruratini o'rganish.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar va uning qonuniy asoslari o'rganish

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishdan litsey, kollej, maktablarda konstitutsiya va undagi o'zgartirishlarni o'rganishda hamda mavzu yuzasidan ma`ruza, referatlar yozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari. Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslarini O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma`ruza,nutq va asarlarida siyosat,iqtisod, jamiyat hayoti va milliy istiqlol mafkurasi yuzasidan bildirgan fikrlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Ish kirish,II bob va to`rt fasl ,xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.Konstitutsiya va demokratik jarayonlar.

I.1. Konstitutsiya tushunchasi va uning tarixi .

Har qaysi davlat huquq tizimida bir talay qonunlar mavjud bo'ladi. Ammo ular orasida eng asosiysi deb e'tirof etiladigan birdan-bir qonun mavjudki, u ham bo'lsa, konstitutsiyadir. Lotincha «constitutio» so'zining tarjimasi, «nizom, qoidalar» degan ma'nolarni anglatadi.

"Konstitutsiya" tushunchasi XVIII asr oxirida paydo bo'lgan. "Konstitutsiya"ga turli xil ta'riflar berilgan bo'lib, ulardan bir necha misollar keltiramiz.

Birinchi ta'rif: fransuz davlatshunos olimi J.Byurdoning Konstitutsiyaga bergan ta'rif: "Konstitutsiya - siyosiy hokimiyatlarni tayinlash, tashkil etish va faoliyat ko'rsatishga oid qoidalar yig'indisidir".

Ikkinchi ta'rifda esa ushbu (yuqoridagi) ta'rifga amerikalik olim K.Berd "Fuqarolar erkinliklari" tushunchasini qo'shadi.

Uchinchi ta'rif sifatida Nigeriyalik konstitutsiyashunos B.Nvabuyezening ta'rifini berashimiz mumkin: "Konstitutsiya - bu qonun kuchiga ega bo'lgan formal hujjat bo'lib, uning yordamida jamiyat o'z-o'zini boshqaradi hamda o'zining turli idoralari bilan shuningdek, bu idoralarning fuqarolar bilan munosabatlarini o'rnatadi".

Ko'pchilik hollarda konstitutsiyaga u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar predmetiga qarab tushuncha beriladi.

Shu ma'noda, Konstitutsiya - davlatning Asosiy Qonuni bo'lib, davlat hokimiyatini tashkil etishni va hokimiyat, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Ko'pchilik Konstitutsiyalar muqaddima (preambula), asosiy normativ qism va yakunlovchi qismdan iborat bo'ladi.

Muqaddima qismida jamiyat va davlat taraqqiyotining asosiy bosqichlari hamda rivojlanish istiqbollari ko'rsatib beriladi.

Asosiy qism bo'lim, bob va moddalardan tashkil topadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddima, olti bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat.

Yakunlovchi qism esa davlat hokimiyatining davomiyligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Ayrim Konstitutsiyalarda ularga kiritilgan qo'shimchalar hajmi juda katta bo'ladi. Ba'zi konstitutsiyalarda esa ilovalar ham bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy rivojlanishining yangi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya bilan boshlanadi. Mazkur sana davlatimiz tarixida abadiy unutilmas voqea bo'lib qoladi. Chunki bu Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining mustaqil, suveren davlat sifatida, o'z xalqining xohish-irodasi asosida qabul qilingan birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida ilgari qabul qilingan barcha Konstitutsiyalar, avvallari, Rossiya imperiyasi, keyinchalik esa Sobiq Sovet Ittifoqi imperiyasi tazyiqi ostida, ularning maqomida to'zilgan, qabul qilingan edi.

O'zbekistonning Konstitutsiyaviy rivojlanish tarixi uni uzoq vaqt davomida (70 yildan ortiq) mustamlaka qilib turgan Sovet Ittifoqining Konstitutsiyaviy rivojlanishi bilan bog'liq va o'sha Konstitutsiyaviy rivojlanishga mos keladi. Chunki Turkiston Avtonom Respublikasi 1917 yilgi Oktyabr inqilobi natijasida Rossiya Federatsiyasi tuzilishi bilan uning tarkibiga kirgan edi.

O'sha davrda O'rta Osiyoda vujudga kelgan Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari ham Rossiya Federatsiyasiga qaram bo'lgan va 1920 yillardagi soxta inqilob natijasida Sovet Respublikalari deb e'lon qilingan.

1924 yilda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida bu uch Respublika (Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm) dan O'zbekiston SSR,

Turkmaniston SSR va Tojikiston ASSR to'zilib, ularning hammasi Sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kiritilgan. Ittifoqdosh Respublikalar uchun Ittifoq Konstitutsiyasi taalluqli bo'lib, respublikalar o'z Konstitutsiyasi va qonunarini Sovet Ittifoqi Konstitutsiyasi va qonunari asosida hamda unga to'la mos keladigan holda qabul qilishlari shart edi. Agar respublikada chiqadigan huquqiy hujjatlar Sovet Ittifoqi qonunariga mos kelmasa, bekor qilinishi kerak edi. Shuning uchun ham Ittifoq tarkibiga kiradigan barcha respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy rivojlanishi bosqichlari Sobiq Sovet Ittifoqi Konstitutsiyaviy rivojlanishi bosqichlariga butunlay mos keladi.

Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy rivojlanishining tarixiy bosqichlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Birinchi bosqich hisoblangan kapitalizmdan sotsializmga o'tish deb nomlangan va 1917 yildan 30-yillarning o'rtalarigacha davom etgan davrga RSFSRning 1918 yilgi Konstitutsiyasi va boshqa respublikalar, shu jumladan o'sha davrda RSFSRning tarkibiga kiruvchi Turkiston Avtonom Respublikasining 1918 yilgi Konstitutsiyasi, Buxoro XSR, Xorazm XSR ning shu davrda qabul qilgan Konstitutsiyalari kiradi. Bu davr Konstitutsiyalariga, shuningdek O'zbekiston SSR ning Sobiq Sovet Ittifoqining 1924 yilgi Konstitutsiyasi asosida qabul qilgan 1927 yilgi Konstitutsiyasi kiradi.

Ikkinchi bosqich- sotsializmni qurish va uning g'alabasini mustahkamlash deb nomlangan va 30-yillarning o'rtalaridan 80-yillarning o'rtalarigacha davom etgan davr Konstitutsiyalariga –Sobiq Sovet Ittifoqining 1936 yilgi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan O'zbekiston SSRning 1937 yilgi Konstitutsiyasi, O'zbekiston tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston ASSRning 1937 yilda qabul qilingan konstitutsiyasi kiradi.

Uchinchi bosqich- bu sotsializmning o'zil-kesil g'alabasi va uni qayta qurish deb nomlangan va 80-yillarning o'rtalaridan Sovet Ittifoqining parchalanishigacha bo'lgan davr Konstitutsiyalariga –Sobiq Sovet Ittifoqining 1977 yilgi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan O'zbekiston SSRning 1978 yilgi Konstitutsiyasi va Qoraqalpog'iston ASSRning o'sha yilgi Konstitutsiyasi kiradi.

1918 yil 15 oktyabrda bolsheviklarning hokimiyatini Turkiston ASSR hududida amalga oshirishni belgilab beruvchi TASSR ning birinchi Konstitutsiyasi 1918 yil 10 iyunda qabul qilingan RSFSR Konstitutsiyasi asosida qabul qilindi. Unga binoan Turkiston ASSR RSFSRning bir tarkibiy qismi hisoblangan.

Turkiston ASSRning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 1920 yil 24 sentyabrda Turkiston o'lkasi sovetlarining IX s'ezdida qabul qilindi va u Turkistonning mustamlaka davlat sifatidagi «Huquq»ini aniq belgilab berdi. Bu yangi Konstitutsiya 20 bob, 109 ta moddadan iborat bo'lib, unda xon va uning qarindoshlariga tegishli bo'lgan mulklar davlatniki deb belgilandi va Moskvaga olib ketildi. Lekin ishlab chiqarish qurollari va vositlaridan xususiy mulk sifatida foydalanishga ruxsat berildi.

O'rta Osiyodagi yana bir bol'sheviklar hokimiyati o'rnatilgan Xorazm Sovet Respublikasida ham 1920 yida Konstitutsiya qabul qilindi va unga ko'ra XXSR hududida ishlab chiqarish vositalari Sovet hokimiyati o'rnatilgunga qadar kimga tegishli bo'lgan bo'lsa, xususiy mulkligicha qoldirildi va yerga shaxsiy egalik qilish, uni sotish, har kim o'z boyliklaridan erkin foydalanishi e'lon qilindi.

1923 yil 20 oktyabrda IV Butun Xorazm Sovetlarining s'ezdida yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Bu Konstitutsiya ham oldingilardan farq qilib, bolsheviklarning O'rta Osiyodagi hokimiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Konstitutsiyaga binoan boylar, dallollar, ruhoniylar saylash va saylanish huquqidan mahrum etilib, «Butun Hokimiyat Sovetlarniki» deb e'lon qilindi.

O'rta Osiyodagi yana bir davlat Buxoro amirligida ham 1920 yil sentyabr oyida Sovet hokimiyati o'rnatilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etildi. 1921 yil 23 sentyabrda II Butun Buxoro Sovetlarining s'ezdi o'tkazilib, unda RSFSR Konstitutsiyasiga mos ravishda BXSr Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1924 yil Lenin tomonidan ishlab chiqilgan reja asosida RSFSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi qarori bilan O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o'tkazildi. Natijada Turkiston ASSR, BXSr va XXSRning o'rnida O'zbekiston va

Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg'iziston va Qoraqalpog'iston avtonom viloyatlari tashkil etildi.

1924 yil 31 yanvarda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasi asosida 1927 yil 30 martda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi qabul qilinib, uning tarkibiga Tojikiston Avtonom Respublikasi kiritildi. 1936 yil 5 dekabrda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan 1937 yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida davlat boshqaruvini amalga oshirish shakllari joylarda Sovetlarni tashkil etish tartibi, ularning vakolat muddatlari, saylash va saylanish tartiblarining ayrim holatlari oldingi Konstitutsiyaga nisbatan qisman o'zgartiriladi, Oliy Sovet va boshqaruv organi Ministrlar Sovetining vakolatlari, tashkil etilish tartibi ko'rsatib berildi va ma'muriy- hududiy tuzilishi, prokuratura, sud tuzilishi va Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish tartiblari belgilandi. O'zbekiston SSR Xalq Nozirlari Sovetining qonunchilik vakolati doirasi bekor qilinib, O'zbekiston SSRning Oliy Soveti yagona qonunchilik organi deb belgilandi. 1978 yil 19 mart kuni O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasi loyihasi matbuotda e'lon qilindi. O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan 15 aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi loyihasi SSSRning 1977 yil 7 oktyabrda amalga kiritilgan Konstitutsiyasiga monand ravishda muhokama qilinib, ayrim moddalariga o'zgartirishlar kiritildi va 16 aprel kuni qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1990 yil 20 iyunda Oliy Kengash yig'ilishi chaqirilib, «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiya» qabul qilindi. Bu tarixiy hujjatning ahamiyati shundan iboratki, u o'zbek davlatchiligi tarixida birinchi tinch yo'l bilan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi to'g'risidagi hujjat edi. Bundan buyon O'zbekiston o'zining tashqi munosabatlarida, davlat hokimiyati masalalarini hal etishda tanho hokimligini, uning chegaralari va hududi daxlsiz ekanligi, o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini, davlat ramzlarini o'zi ta'sis etishi va demokratik huquqiy davlat tashkil topganligini butun dunyoga ma'lum qildi.

1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasi chaqirilib, «Davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti» qabul qilindi.

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasining «Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiya»¹ va «Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti»ga² asoslanib, «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'grisida»gi³ Konstitutsiyaviy qonunni qabul qildi. Ushbu qonun O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishilganligini uzil-kesil mustahkamladi. Unda, jumladan O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil demokratik davlatdir deyiladi.

“O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi dunyoga kelishiga asosan ikkita omil sabab bo'ldi. Shulardan biri jamiyatning bozor munosabatlari tomon tutgan yo'li, yangi taraqqiyotdagi umumiy qonuniyatlar va yo'nalishlariga muvofiq ravishda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi bo'ldi. O'zbekistonda davlat mustaqilligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishinii taqozo etgan ikkinchi omil bo'ldi.”⁴

Agar amaldagi Konstitutsiya o'z mohiyati talablariga javob bermay qo'ysa, Konstitutsiyaviy islohot uchun zarurat tug'iladi. O'zbekistonning 1978 yilgi Konstitutsiyasi ham davlatimizning hozirgi zamon maqomiga, shaxs bilan davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlari xalqaro huquq talab va me'yorlariga javob bermay qo'ygan edi. Chunki u jahon Konstitutsiyaviy amaliyotida e'tirof etilgan Konstitutsiyaviy talablarga javob bermas edi. Shuning uchun ham 1990 yilning iyunida Respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida yangi asosiy qonun loyihasini tayyorlash uchun 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991.6-son

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991.6-son

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991,7-son.

⁴O'razayev SH.Z.Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi.T:”Adolat”,1994-yil.7-bet.

32 kishidan iborat bo'lgan ishchi guruh tashkil etilib ,3 ta konsepsuya tayyorlandi. Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi,Siyosatshunoslik institute konsepsiyasi va Prezident devoning davlat sho'basi tayyorlagan konsepsiya.

Yangi asosiy qonun loyihasini tayyorlash faol amaliy Konstitutsiyaviy islohot jarayoni bilan uzviy bog'liqlikda olib borildi. 1990-1992 yillarda O'zbekistonning 1978 yilgi Konstitutsiyasiga 100 dan ortiq o'ta muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Konstitutsiyaviy komissiya taraqqiyotimizning talablariga javob beradigan, hayot sinovidan o'tgan, 1990-1991 yillarda joriy qilingan qator yangi Konstitutsiyaviy qoidalarni Asosiy qonun loyihasiga kiritdi. Bular Konstitutsiyaviy islohotning birinchi bosqichi mazmunini tashkil etdi. Konstitutsiyaviy islohotning ikkinchi bosqichi 1991 yil 31 avgustdan to 1992 yil 8 dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun bilan belgilanadi. Bu hajmi bo'yicha 17 moddadan tashkil topgan, nihoyatda ixcham va kichik hujjat O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida qo'ygan ilk qadamlarining Konstitutsiyaviy huquqiy asosini tashkil etadi, o'z mazmun –mohiyati bo'yicha uni muvaqqat kichik Konstitutsiya deb ta'riflash mumkin. Shu bosqich mobaynida Konstitutsiya loyihasi tayyorlanib, 1992-yil 26-sentabr umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilindi. Loyiha ikki yarim oy mobaynida matbuotda, barcha ommaviy axborot vositalarida, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar faollarining yig'ilishlarida, ming –minglab mehnat jamoalarida chuqur va atroflicha muhokama qilindi. Umumxalq muhokamasi davomida loyihani yaxshilashga doir ko'plab taklif va mulohazalar bildirildi. Konstitutsiyaviy komissiyaning o'ziga 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza tushdi, tushgan taklif va mulohazalarning hammasi atroflicha puxta o'rganildi hamda loyiha ustidagi ishlarni davom ettirish chog'ida ulardan foydalanildi. Natijada 60 dan ortiq moddaga aniqlik va to'zatislar kiritildi. Tushgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda Konstitutsiya loyixasi matbuotda ikkinchi marta 1992-yil 21-noyabrda e'lon qilindi. Konstitutsiyaviy komissiya umumxalq

muhokamasi yakunlarini ko'rib, loyiha ma'qulladi. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida moddama-modda qizg'in muhokama etildi va qabul qilindi.

Konstitutsiyaning yaratilishida, muhokama qilinishida va qabul qilinishida Konstitutsiyaviy komissiyaning raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning rolini alohida ta'kidlash lozim. Prezidentimiz nafaqat Konstitutsiyani ishlab chiqish tashabbuskori, loyiha tayyorlash ishlariga rahbar, balki Asosiy Qomusning tub mohiyati, falsafasi, asosiy g'oyalarining muallifidir.

O'zbekistondagi Konstitutsiyaviy islohotning va taraqqiyotning uchinchi bosqichi respublikamizning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan boshlanadi.

Yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish zarurligi haqidagi g'oya Respublikamizning 1990 yil mart oyida bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasidayoq aytilgan edi.

O'zbekiston Oliy Kengashining 1990 yil 20 iyunda e'lon qilgan mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyasi respublikaning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo'lishi ta'kidlangan edi.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi va «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Unda belgilangan qoidalar amaliyotda bir yarim yil mobaynida sinovdan o'tdi, so'ngra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasiga kiritildi. Konstitutsiya loyihasini tayyorlash borasidagi barcha ishlar I.Karimovning bevosita rahbarligida amalga oshirildi. Prezident Konstitutsiya loyihasini birinchi marta e'lon qilguncha ikki marta, keyingi e'lon qilguncha esa yana ikki marta tahrir qildi. Prezidentning bu xatti-harakatlarini quyidagi fikrlarining yaqqol amaldagi isboti sifatida qarash mumkin.

“Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir.”¹

¹ I.A.Karimov. "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin". 93-bet. T.: "O'zbekiston" 1996.

Fuqarolarning aniq takliflari va mulohazalarini o'rganib chiqib, Oliy Kengash sessiyasidan avval loyihani qo'lda qalam bilan yana bir bor ko'rib chiqdi va shundan keyin Oliy Kengash sessiyasiga so'nggi muhokama uchun taqdim etildi. 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan moddama-modda ovoz berish yo'li bilan Konstitutsiya qabul qilindi.

Bu Konstitutsiya muqaddima va olti bo'limdan iborat bo'lib, ular 26 bob, 128 moddani o'z ichiga oladi. Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekiston xalqi nomidan uning nima maqsadda, qanday xalqaro g'oyalarga, Konstitutsiyaviy tajribalarga asoslanib qabul qilinayotganligi ko'rsatilgan.

Konstitutsiyaning birinchi bo'limida Konstitutsiyaviy to'zumning asosiy prinsiplari-davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunarning boshqa huquqiy normalardan ustunligi, O'zbekiston tashqi siyosatining asoslari e'lon qilingan.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limida gap inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari to'g'risida boradi. 5-bobda barcha fuqarolarning teng huquqliligi, ijtimoiy adolat prinsipi, huquq va burchlarning bir-biriga bog'liqligi, huquq va erkinliklarning daxlsizligi, huquqni amalga oshirayotganda boshqa fuqarolar huquqlariga zarar yetkazmaslik, respublikada yagona fuqarolik o'rnatilganligi, fuqarolarning tengligi, fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi, O'zbekiston hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar huquqlarining ta'minlanishi belgilab qo'yilgan.

Ushbu bo'limda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari alohida boblar tarzida berilgan, ya'ni shaxsiy huquq va erkinliklar (6-bob), siyosiy huquqlar (8-bob), iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar (9-bob), inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari (10-bob) hamda fuqarolarning burchlari (11-bob) ko'rsatilgan.

Konstitutsiyaning uchinchi-«Jamiyat va shaxs» bo'limida jamiyatning iqtisodiy negizlari (12-bob), jamoat birlashmalari (13-bob), oila (14-bob) va ommaviy axborot vositalari to'g'risida gap boradi (15-bob).

Asosiy Qonunning to'rtinchi bo'limi «Ma'muriy –hududiy va davlat tuzilishi» deb nomlangan bo'lib, uning 16-bobi Respublikaning ma'muriy-hududiy tuzilishiga, 17-bob Qoraqalpog'iston Respublikasiga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning «Davlat hokimiyatining tashkil etilishi» nomli beshinchi bo'limida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (18-bob), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (19-bob), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (20-bob), Mahalliy davlat hokimiyati asoslari (21-bob), Saylov tizimi (22-bob), Sud hokimiyati (23-bob), Prokuratura (24-bob), Moliya va kredit (25-bob), Mudofaa va xavfsizlik (26-bob) masalalari ko'rsatilgan.

Konstitutsiyaning oltinchi bo'limida Konstitutsiyani o'zgartirish tartibi 127- va 128- moddalarda keltirilgan.

Mana shunday uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan konstitutsiyamiz jahon talablariga javob beradigan darajadagi demokratik tamoyillarga asoslangan holda shakllantirildi. Konstitutsiyamizda eng avvalo shaxs undan so'ng jamiyat, keyin esa davlat manfaatlari ustunlik qiladi. Konstitutsiyamizda belgilab ko'rsatilgan to'rt asosiy prinsip davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosat kabilar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

I.2 O'zbekistondagi demokratik jarayonlarning konstitutsiyada ifodalanishi.

Ma'lumki, O'zbekiston 1991 yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Istiqlolimizning ilk yillaridayoq, Prezidentimiz yuksak demokratik talablarni hayotimizga to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati barpo qilish, farovon hayotga erishish bilan chambarchas bog'liq va uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini ta'kidlab, bunday darajaga ko'tarilish hech qachon osonlikcha kechmasligini uqtirib o'tgan edi.

1992-yil O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida, o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qildi. 1992-yildan 2010-yilga qadar O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga 4 marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ular quyidagilardan iborat:

1) 1993-yil 28- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ilk qo'shimcha kiritildi va "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-

moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"¹ Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismidagi «150 nafar deputatdan» degan so'zlar «deputatlardan» degan so'z bilan almashtirilsin."

2) 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'garisidagi"² Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi moddalari normalariga kiritilayotgan ushbu o'zgartirishlar asosan uning beshinchi bo'limi XVIII ,XIX, XX, XXIII boblariga taalluqli hamda kelgusi chaqiriqda O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamentini saylash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan etti yillik qilib o'zgartirish to'g'risidagi masalalar yuzasidan 2002 yil 27 yanvar kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining qarorlari bilan bog'liq.

Ikki palatali milliy parlamentni tashqil qilish masalasi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 2000 yil 25 mayda Oliy Majlisning 2-sessiyasida ilgari surildi. "SHuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o'zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma'naviy ongi ulg'ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir. SHu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritmoqchiman, ya'ni biz 2004 yilda bo'ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim"³

Oliy Majlisning 2001 yil 6 dekabrda qabul qilgan O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, 2002 yil 27 yanvarda referendum o'tkazildi. SHu asosdagi "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 y.,1-son, 5-modda

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y.,3-4-son, 27-modda

³ "Xalq so'zi"2000.26-may.57-son.

Qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

2002 yil 12 dekabrda Oliy Majlisning 10-sessiyasi xalqimizning xohish irodasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda ularni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlar qabul qildi. SHuningdek, 2003 yil 24 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to‘plangan parlamentarizm tajribasi, O‘zbekiston xalqining qadriyatlari va mentalitetini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan ushbu qonunlar ikki palatali parlamentimiz vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

Referendum qarorlariga muvofiq «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»¹, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida»², «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»³gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilingan bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga tegishli o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish uchun asos hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati — besh yil. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘p partiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a‘zolaridan (senatorlardan) iborat.

"O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 4-5-son, 60-modda.

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 12-son, 213-modda.

³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 12-son, 215-modda.

vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas.¹

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash; boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: "O'zbekiston" 2015.76-77-moddalar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish; soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish; tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish; davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylash;

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga xujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash; xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish; ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi.

“ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.”¹

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudini saylash; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: “O‘zbekiston” 2015.79-moddalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish; O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish; O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish; o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish; siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

81-modda. Vakolat muddati tugagach, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tegishincha yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senati ish boshlaguniga qadar o‘z faoliyatini davom ettirib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o‘tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik Sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki Boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy

sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'z tarkibidan Senat Raisi va uning o'rinbosarlarini saylaydi. Senat Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qarorlariga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi:

Senat majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

Senat qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi; parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Senat nomidan ish ko'radi;

Senat qarorlarini imzolaydi; ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi farmoyishlar chiqaradi.

“ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o‘z vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan qo‘mitalarni saylaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o‘z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo‘mitalarni saylaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, zarurat bo‘lgan taqdirda, muayyan vazifalarni bajarish uchun deputatlar, senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi.”¹

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlariga va Senati a‘zolariga ularning deputatlik yoki senatorlik faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar belgilangan tartibda qoplanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatda doimiy asosda ishlovchi Senat a‘zolari o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Ular tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma‘muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.

Quyi Qonunchilik palatasi deputatlari soni 150 ta, shundan 135 ta deputat faqat siyosiy partiyalardan saylanadi. 15 ta deputat esa O‘zbekiston Respublikasi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: “O‘zbekiston” 2015.87-modda

Ekologik harakatidan saylanadi. Vakolat muddati 5 yil, Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional asosida amalga oshiradi va qonunlar ishlab chiqadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida:

1. O'zLD Partiyasi, O'zMTD Partiyasi, O'z "Adolat" SD Partiyasi fraksiyalarining Demokratik bloki tuzilgan va u samarali ishlab turibdi.
2. O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi timsolida parlament muxolifati faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.¹

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri:

Qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi; Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi; Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi; O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi; parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq, Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o'zga tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi; Qonunchilik palatasi qarorlarini imzolaydi; ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: "O'zbekiston" 2015. 85-modda..

vakolatlarni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi. 2003-yilda "saylov tizimi" ga ham o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqaro huquq andozalari va ilg'or xorijiy davlatlar talablariga mos yangi saylov qonunchiligi yaratildi. O'zbekistonda saylov qonunchiligi, ya'ni parlament 4 bosqichdan iborat taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi:

Birinchi bosqich. Konstitutsiyamiz qabul qilingunga qadar davr bo'lib, bu davrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti saylovi va Referendum to'g'risidagi bir qator qonunlar qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich. Konstitutsiyamiz qabul qilingandan to 1997 yilgacha davom etdi. Bu davrda milliy saylov tizimi shakllantirildi.

Uchinchi bosqich. 1997 yildan to 2003 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda amaldagi saylov qonunlariga ayrim o'zgartishlar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

To'rtinchi bosqich. 2003 yildan 2005 yilgacha bo'lib, bu davrda ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog'liq saylov qonunlariga o'zgartishlar kiritildi va 2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlis quyi Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov

huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo'lishi mumkin emas.

Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.¹

XIX va XX boblarga ham quyidagicha o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi" degan so'zlar chiqarib tashlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: "O'zbekiston" 2015. 117-modda.

berish yo'li bilan etgi yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi».

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi; mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi; muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi; o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalar yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi; ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi; viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi; viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashlarining tasdig'iga kiritadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadriyatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli; respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi;

O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

O'zbekiston Respublikasiga xujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi; favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi; amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o‘z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas».

“Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek Qonunchilik palatasi bilan Senat o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.”¹

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti betobligi sababli o‘z vazifasini bajara olmasligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qo‘shma qaroriga ko‘ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o‘n kun muddat ichida palatalarning qo‘shma favqulodda yig‘ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oygacha bo‘lgan muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumxalq saylovi o‘tkazilishi shart.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan Prezident umrbod Senat a’zosi lavozimini egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Hukumatining boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: “O‘zbekiston” 2015. 95-modda.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ushbu Konstitutsiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi».

99-moddaning ruscha matnidagi «Советы» degan so'z «Kengashi» degan so'z bilan almashtirildi.

Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o'zgartirish kiritish natijasida quyidagi o'zgartirish ham kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi

tomonidan qabul qilingan qonun yoki O‘zbekiston Respublikasining referendumini bilan kiritiladi.”¹

3. “ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to‘g‘risida”² gi Qonuniga asosan 2007 –yil 11-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga , 93- moddaning 15-bandiga, 102-moddasining 2-qismiga o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu o‘zgartirish Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yil 28 fevralda qabul qilingan ,Senat tomonidan 2007 yil 29 martda ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ushbu tuzatishlar davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirish, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi tarmoqlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga Konstitutsiya bilan yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirishdagi roli va mas’uliyatini oshirish, mamlakat Prezidenti vazifalarini aniq-ravshan belgilash hamda huquqiy me’yorlar doirasida cheklash, shuningdek yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta’sirini kuchaytirish maqsadida kiritildi. Ular quyidagilardan iborat:

1) 89-modda kuyidagi tahrirda bayon etildi:

89-modda. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi.

2) 93-moddaning 15-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi:

«15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli»;

3) 102-moddaning ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etildi:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: “O‘zbekiston” 2015. 127-modda.

² O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 15-son, 152-modda

«Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi».

Ushbu Qonun 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirgan.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 2008-yilning 25-dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan Konstitutsiya 77-moddaning birinchi qismiga quyidagicha o'zgartirish kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylanadigan deputatlar soni 120tadan 150taga ko'paytirilgan.

Demak, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bo'yicha quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin:

Davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy bo'linish prinsipi yanada demokratlashtirilmoqda. Markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari, ma'muriy organlar vakolatlari, davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi roli kamaytirilmoqda. Boshqaruv soxasidagi markazlashtirish cheklanmoqda. Viloyat, tuman, shaharlardagi mahalliy o'zini o'zi boshqarish idorasi - mahalla tizimi islohoti o'tkazilib, uning roli yanada oshirilmoqda.

Ikki palatali parlamentning davlat hokimiyatini tashkil etishdagi huquqiy maqomi mustahkamlanmoqda. Yuqori palata – Senat hududiy manfaatlarni ifoda etmoqda. Quyi – Qonunchilik palatasi faoliyati doimiy professional asosda amalga oshirilmoqda. 2007 yilda O'zbekiston Konstitutsiyasi 89-moddasiga tuzatishlar kiritildi. Prezident - davlat boshlig'i va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishi, hamkorligi ta'minlanmoqda.

Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimi tugatilib, Bosh vazir lavozimi joriy qilindi va bu jarayon yanada liberallashtirilmoqda. Davlat hokimiyatining 3 ta sub'ekti: davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi taqsimlanish yanada mustahkamlanmoqda.

Siyosiy tizimni modernizatsiya qilish, isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichiga qadam qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar asosida Prezident tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rsatish va uni tasdiqlash demokratik prinsipning yangi

tartibi o‘rnatilmoqda. Oliy Majlisga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish huquqi berilmoqda. Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya Bosh vazir nomzodini ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lmoqda.

Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi belgilanib, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi instituti joriy etilmoqda.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi parlament a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda Bosh vazirni lavozimidan ozod etish bo‘yicha qaror qabul qilinadi. Bunda Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste’foga chiqadi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilsa, Prezident vaqtincha Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va Oliy Majlisni tarqatib yuboradi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi Prezident vakolatidan chiqarilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 96-moddasining yangi tahririga ko‘ra, Prezidentning vazifa va vakolatlariga doir yangi takliflar asosida 78- va 93-moddalarga tegishli o‘zgartishlar kiritish belgilab berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasi Majlislarida raislik qilishga haqli.

Mamlakatning amaldagi Prezidenti o‘z vakolatlarini bajara olmaydigan holatda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha Oliy Majlis Senati raisi zimmasiga yuklatiladi hamda bunda uch oy ichida qonunga muvofiq Prezidentlik saylovi o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Bosh prokurori, Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi hamda Oliy Majlis Senati tasdig‘iga kiritadi. Oliy Majlis Senati Bosh vazir hisobotlarini eshitadi va muhokama qiladi. Oliy Majlisga hokimiyat vakillik organlari va tashabbuskor guruhlardan nomzod ko‘rsatish huquqi tugatildi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko‘rsatish huquqi faqat siyosiy partiyalarga berildi. Siyosiy partiyalarning vakolatli vakili Qonunchilik palatasiga kiritildi. Deputatlik o‘rinlarini kvotalash instituti joriy etildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi 15 ta deputatlik o'zni O'zbekiston Ekologik harakatiga berildi. Vazirlar Mahkamasi a'zolari, Bosh vazir taqdimiga ko'ra, Prezident tomonidan tasdiqlanadi.

Konstitutsiyaga kiritilgan ushbu o'zgartirishdan maqsad davlatning qonun chiqaruvchi oliy hokimiyati hisoblanuvchi Oliy Majlis faoliyatini yanada takomillashlashtirish hamda Qonunchilik palatasi nufuzini oshirishdan iborat edi.

II. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi " va konstitutsiya.

II.1 "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi " va konstitutsiyaviy islohotlar zarurati.

Mamlakatimiz o'zining qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma'nodagi ozod va suveren mamlakatga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusida so'zlagan ma'ruzasida Vatanimiz, xalqimizning ana shu tarixan qisqa bir davrda erishgan ulkan yutuq va marralari har tomonlama chuqur tahlil etib berildi. Yurtboshimiz bu haqda gapirar ekan, quyidagi raqamlarga alohida e'tibor qaratdi. Avvalo, mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida **O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani** alohida ta'kidlandi. **"Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar – aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar**

o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga etganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi"¹, dedi davlatimiz rahbari.

Ma'ruzada shu kabi yana ko'plab ulkan muvaffaqiyatlarimiz barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, huquqiy demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish borasidagi uzoq va murakkab yo'lning faqat bir qismi ekani, ayni vaqtda erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilish, real voqelikdan uzilib qolish mamlakatimiz taraqqiyotining samaradorligi va istiqboliga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Prezidenti o'z ma'ruzasida **"ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor"**² ligini ta'kidlab, yaqin kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, mamlakat Prezidenti qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. SHu konstitutsiyaviy normadan kelib chiqib, Yurtboshimiz o'z ma'ruzasida mamlakatimizning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar hayotiga oid eng muhim ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amaliy taklif va g'oyalarni ilgari surdi.

Birinchi ustuvor yo'nalish **"Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish"** deb nomlanadi. Unda hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini amaliyotga tatbiq etishni yanada takomillashtirish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini amalda

¹ Karimov.I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" T:"O'zbekiston" 2010. 5-bet

² Karimov.I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" T:"O'zbekiston" 2010. 8-bet

ta'minlash, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati organlari vakolatlari hamda nazorat vazifalari doirasini aniq belgilab berish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis (uning palatalari), Bosh vazir vakolatlari tizimiga, demakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalariga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritish borasida qator takliflar bildirildi.

Ma'ruzaning **“Sud-huquq tizimini isloh etish”** deb nomlangan ikkinchi ustuvor yo'nalishida mustaqillik yillarida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, himoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning mohiyati hamda ularning real natijalari aniq raqamlar orqali keng ochib berildi. Prezidentimiz mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish, jumladan, jinoiy-huquqiy sohani liberallashtirish, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish vazifalarini samarali hal qilishga qaratilgan sakkiz yo'nalishdagi muhim takliflarini bildirdi.

Ma'lumki, jamiyat hayotini demokratlashtirish, inson huquq va erkinliklarini amalda ta'minlash masalasi mamlakat aholisini axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish erkinligi, ommaviy axborot vositalari mustaqilligining ta'minlanishiga bevosita bog'liq. YUrtboshimiz o'z ma'ruzasining **“Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash”** deb nomlangan uchinchi ustuvor yo'nalishida bu borada mamlakatimizda hozirga qadar olib borilgan muhim tadbirlarni e'tirof etgan holda, sohani rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari huquq va erkinliklarini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bunda davlat tomonidan ularni qo'llab-quvvatlashni qonuniy asosga qo'yish singari muhim yo'nalishlarda qator yangi qonunlarni qabul qilish, mavjud qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni hayotning o'zi talab qilayotganini ta'kidladi.

“O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish” deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalish mamlakatimiz saylov tizimini shakllantirish, uni bosqichma-bosqich takomillashtirish borasida hozirga qadar erishilgan muvaffaqiyatlar tahlili bilan boshlanadi. Ayni vaqtda yurtimizda o'tkazilgan oxirgi saylov tajribalaridan,

qolaversa, rivojlangan davlatlarda bu borada erishilgan natijalardan ijodiy foydalanish asnosida saylov tizimimizni yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim qonunchilik tashabbuslari ilgari suriladi.

Ma'ruzaning beshinchi ustuvor yo'nalishi **“Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish”** deb ataladi. Unda fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jumladan, o'zini o'zi boshqarish tizimining yurtimizga xos muhim va noyob bo'g'ini bo'lmish mahalla instituti faoliyatini qonuniy asosga qo'yish borasidagi sa'y-harakatlar, ularning amaliy natijalari tahlil etildi. YUrtboshimiz mamlakatimizning boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlari roli va ta'sirini oshirish, buning uchun esa ularning huquq va vakolatlari doirasini yanada kengaytirish maqsadida qator yangi qonunlar yaratish, amaldagi qonun hujjatlariga muhim o'zgartish va qo'shimchalar kiritish zarurligini aniq takliflar asosida ko'rsatib berdi.

Ma'lumki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng sobiq sho'ro tuzumining umrini o'tab bo'lgan ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechilib, butun dunyoda “o'zbek modeli” degan nom bilan haqli ravishda e'tirof etilayotgan o'ziga xos taraqqiyot yo'li Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi va bugungi kunda o'zini to'la oqlamoqda. Mazkur model iqtisodiyotni mafkuradan holiligi, uning siyosatdan ustunligi, qonun ustuvorligi, davlatning bosh islohotchi bo'lishi, islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirishi, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish kabi muhim tamoyillarni o'z ichiga oladi. Ma'ruzaning **“Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish”** deb nomlangan so'nggi ustuvor yo'nalishida yurtimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining sur'ati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiyot sohasining qonunchilik asoslarini takomillashtirish, bunda, ayniqsa, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xususiy mulk daxlsizligini so'zsiz ta'minlash, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan band qilishdek muhim ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar echimidan kelib chiqish lozimligi ta'kidlandi.

Bir soʻz bilan aytganda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusidagi maʼruzasi mustaqil davlatimiz, xalqimiz va jamiyatimizning bugungi hamda kelajak hayotining eng muhim ustuvor sohalari rivojini oʻzida mujassam etgan, tom maʼnoda tarixiy, dasturiy konseptual ahamiyatga ega muhim hujjat hisoblanadi. Buni YUrtboshimizning quyidagi yakuniy mulohazalari ham yaqqol tasdiqlaydi: **“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning taklif etilgan Konsepsiyasi Oʻzbekistonni isloh etish va modernizatsiya qilish borasida biz qariyb 20 yil oldin boshlagan jarayonni davom ettirish boʻyicha Oliy Majlis tomonidan uzoq muddatli aniq harakat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos boʻladi, deb ishonaman”.**¹

DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVINI DEMOKRATLASHTIRISH.

Maʼruzada taʼkidlab oʻtilganidek, oʻtgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohatlar juda muhim bir maqsadga, yaʼni hokimiyatlar boʻlinishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga tatbiq etish, hokimiyatlar oʻrtasida oʻzaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini taʼminlash boʻyicha gʻoyat dolzarb chora-tadbirlarni koʻrishga qaratilgan edi.²

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish masalasida Prezidentimizning 2010-yil 12-noyabrda bergan takliflari asosida 2011-yil 18-

¹ Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" 2010.12-b.

² Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi // Xalq soʻzi, 2010 yil 13 noyabr, № 220 (5135).

aprelda O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 78,80,93,96 va 98 – moddalariga quyidagicha o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.¹

Ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 4 martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2011 yil 25 martda ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, davlat hokimiyatining uchta sub'ekti: davlat boshlig'i — Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash, shuningdek sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta'sirini kuchaytirish maqsadida kiritildi.

1) 78-modda birinchi qismining 15-bandi «shuningdek mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish» degan so'zlar bilan to'ldirildi;

2) 80-moddaning 6-bandidagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va» degan so'zlardan keyin:

«uning o'rinbosarlarini» degan so'zlar chiqarib tashlandi;

«Hisob palatasi raisini» degan so'zlar bilan to'ldirildi;

3) 93-modda birinchi qismining:

8-bandidagi «ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi» degan so'zlar chiqarib tashlandi;

12-bandidagi «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va» degan so'zlardan keyin:

«uning o'rinbosarlarini» degan so'zlar chiqarib tashlandi;

«Hisob palatasi raisini» degan so'zlar bilan to'ldirildi;

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 16-son, 159-modda

15-bandi «viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi» degan soʻzlardan oldin «Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan» degan soʻzlar bilan toʻldirildi.

16-bandi «Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli» degan soʻzlar bilan toʻldirildi;

4) 96-modda quyidagi tahrirda bayon etildi:

«96-modda.Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti oʻz vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, «Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi toʻgʻrisida»gi Qonunga toʻliq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi oʻtkaziladi»;

5) 98-modda quyidagi tahrirda bayon etilsidi:

«98-modda.Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning oʻrinbosarlari, vazirlar, davlat qoʻmitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpogʻiston Respublikasi hukumatining boshligʻi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga oʻz lavozimi boʻyicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va maʼnaviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini taʼminlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy boʻlgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar boʻladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining topshirigʻiga binoan xalqaro

munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi».¹

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-dekabrda qonuniga binoan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to'g'risidagi O'RQ-284-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 10 noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2011 yil 5 dekabrda ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga ushbu tuzatish davlat boshqaruvining demokratik prinsiplarini, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirishda Oliy Majlisning roli va ahamiyatini mustahkamlash borasida mamlakatimizda kechayotgan jarayonlarni, shuningdek rivojlangan demokratik mamlakatlarning ko'pchiligida qabul qilingan davlat qurilishi amaliyotini hisobga olgan holda kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tuzatish to'g'risidagi mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 12 noyabrda Oliy Majlis

¹ «Xalq so'zi» gazetasining 2011 yil 19 apreldagi 76 (5243)-soni

palatalarining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzusidagi ma'ruzasida belgilangan vazifalar nuqtai nazaridan davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik o'zgarishlarning mantiqiy davomidir. 90-moddasining ikkinchi qismidagi «yetti yil» degan so'zlar «besh yil» degan so'zlar bilan almashtirilsin.¹

II.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar va uning qonuniy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan so'nggi o'zgartirish 2014-yil 16-aprelda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi² Qonunga asosan amalga oshirildi. Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2014 yil 27 martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2014 yil 10 aprelda ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar hokimiyat va boshqaruv tizimini yanada demokratlashtirish, «kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» prinsipi bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini, ichki va tashqi siyosatning strategik vazifalarini amalga oshirishdagi huquq va vakolatlarini kengaytirish, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro etuvchi organlar faoliyati ustidan qonun chiqaruvchi oliy organning, hokimiyat vakillik organlarining nazorat funksiyalarini kuchaytirish, shuningdek hukumatning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mamlakatni ijtimoiy-

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011 y., 12/1-son, 343-modda

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 16-son, 176-modda

iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini ro'yobga chiqarish borasidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida kiritildi. Ular quyidagilardan iborat.

1) **32-modda:** ikkinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etildi

«Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi»;

quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirildi:

«Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi»;

2) 78-modda birinchi qismining 21-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi:

«21) parlament nazoratini va ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish»;

3) 93-modda birinchi qismining 7-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi:

«7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega»;

8-bandidagi «tuzadi va tugatadi» degan so'zlar «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan tuzadi va tugatadi» degan so'zlar bilan almashtirildi;

10-bandidagi «va lavozimidan ozod qiladi» degan so'zlar «hamda uni iste'foga chiqqanda, Bosh vazirga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan qabul qilinganda yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda lavozimidan ozod qiladi» degan so'zlar bilan almashtirildi

16-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi

«16) respublika davlat boshqaruvi organlarining va hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini ular qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo'lgan hollarda to'xtatadi, bekor qiladi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli»;

24-bandidagi «O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi» degan so‘zlar chiqarib tashlandi.

4) 98-modda quyidagi tahrirda bayon etildi;

«98-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi:

- 1) samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo‘ladi;
- 2) fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- 3) davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta’minlaydi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma’ruzalar taqdim etadi;
- 6) ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.

Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri:

- 1) Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi;
- 2) Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi;
- 3) xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi;
- 4) O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda

Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste’foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko‘rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi»;

5) 103-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirildi;

«Viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi, ular bo‘yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinadi»;

ikkinchi qismi uchinchi qism deb hisoblandi;

6) 117-modda:

quyidagi mazmundagi oltinchi — to‘qqizinchi qismlar bilan to‘ldirildi:

«O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan faoliyatining asosiy prinsiplari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilikdan iborat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuziladi.¹

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi o‘z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi va o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining saylov to‘g‘risidagi hamda referendum to‘g‘risidagi qonunlariga va boshqa qonunlarga amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi komissiya a‘zolari orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimi bo‘yicha komissiya majlisida saylanadi»;²

oltinchi qismi o‘ninchi qism deb hisoblanadigan bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining ushbu tashabbusi O‘zbekistonda o‘zini to‘liq oqlagan islohotlarning “o‘zbek modeli” asosida amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni izchil o‘zgartirish hamda demokratik yangilash jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishini alohida ta’kidlash mumkin. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi davlatimiz rahbari tomonidan taklif etilgan, konstitutsiyaga kiritilayotgan tuzatishlar to‘g‘risidagi muhim qonunni qabul qildi. Qonun “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” deb nomlangan mamlakatimiz taraqqiyotining bosh prinsipini amalga oshirishni bundan buyon

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T:”O‘zbekiston” 2015.

²«Xalq so‘zi» gazetasining 2014 yil 17 apreldagi 74 (6004)-soni

ham davom ettirish, mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan inson huquq va erkinliklari hamda demokratiyaning boshqa umume'tirof etilgan qadriyat va normalarining ishonchli himoyasini ta'minlaydigan siyosiy tuzumni shakllantirishda ulkan ahamiyatga egadir.

Erishilgan marralar, jamiyatimiz hayotida jadal yuz berayotgan o'zgarishlar, shuningdek, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish borasida biz o'z oldimizga qo'ygan maqsad Konstitutsiyamizga aniqliklar kiritish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan qonunchilik tashabbuslariga asos bo'lib xizmat qiladi.

“Ushbu Qonun loyihasini ikkinchi o'qishda ko'rib chiqishga tayyorlash chog'ida uning asosiy g'oya va qoidalarini muhokama etish hamda chuqur o'rganish yuzasidan bir qancha uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etildi. Ularda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, mutaxassis va olimlar, yurist-huquqshunoslar ishtirok etdilar. Qonun loyihasi siyosiy partiyalar fraksiyalari va O'zbekiston Ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhining majlislarida, Qonunchilik palatasi qo'mitalarida faol va keng muhokama qilindi. Ana shu muhokamalar paytida deputatlar davlatimiz rahbarining qonunchilik tashabbuslarini to'liq qo'llab-quvvatladilar, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilayotgan tuzatishlarning o'z vaqtida qo'yilgani va muhimligini qayd etdilar.

Qonun loyihasini moddama-modda muhokama etish chog'ida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan saylangan deputatlar Konstitutsiyaning 98-moddasida Prezident vakolatlarining bir qismini Bosh vazirga o'tkazishni, umuman, Vazirlar Mahkamasining vakolat va huquqlarini aniqlashtirish hamda kengaytirishni nazarda tutadigan normalar mustahkamlab qo'yilishi muhim ekanini qayd etdilar.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining zimmasiga samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosatini amalga oshirish, ilm-fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash hamda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish

uchun mas'uliyat yuklatilmoqda. Vazirlar Mahkamasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi, qonunda belgilangan tartibda ularning faoliyati nazorat qilinishini ta'minlaydi. Deputatlarning fikricha, O'zbekistonni siyosiy va konstitutsiyaviy rivojlantirish mantig'ining o'zi Vazirlar Mahkamasining mustaqilligi va mas'uliyatini ta'minlashga qaratilgan ushbu qoidalarni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasining a'zolari Konstitutsiyaning 78-moddasidagi Vazirlar Mahkamasining faoliyatini nazorat qilish bo'yicha parlament palatalarining roli va vakolatlarini kengaytirishni ko'zda tutadigan yangi qoidalarga e'tibor qaratdilar.

Deputatlarning fikricha, Bosh vazir lavozimiga nomzod parlamentda uning nomzodi ko'rib chiqilayotgan va tasdiqlanayotgan paytda hukumatning yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etishi haqidagi normaning Konstitutsiyaga kiritilishi siyosiy partiyalarga hukumatning tutgan yo'li va dasturlari yoki uning alohida yo'nalishlari yuzasidan o'z nuqtai nazarini aniq belgilab olish imkonini beradi. Konstitutsiyaga kiritilayotgan ushbu tuzatish demokratik jamiyatning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan parlamentarizm, ko'ppartiyaviylik tizimi va partiyalararo raqobat, fraksiyalararo kurashni yanada mustahkamlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qonun loyihasida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir eng muhim masalalar yuzasidan hukumatning har yili o'z ma'ruzalarini parlamentga taqdim etish majburiyati nazarda tutilgani ham bunga ko'maklashadi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasining a'zolari Konstitutsiyaning 103-moddasiga kiritilayotgan qo'shimchalarning alohida dolzarb ahamiyatga ega ekanini qayd etdilar. Mazkur qo'shimchalarga muvofiq viloyat, tuman va shahar hokimlarining zimmasiga xalq deputatlari tegishli Kengashlariga viloyat, tuman, shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir eng muhim va dolzarb masalalar yuzasidan hisobotlar taqdim etish majburiyati yuklatilmoqda. Xalq deputatlari Kengashlari esa ushbu hisobotlar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qiladi.

Shu tariqa deputatlar vakillik organlarining roli va ahamiyati, ularning jamiyatimiz hayotidagi haqiqiy imkoniyatlari tubdan kuchayadi, shuningdek, mintaqalarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlantirishning aniq ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda siyosiy partiyalar, ularning mahalliy Kengashlardagi deputatlar guruhlarining roli ancha oshadi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi deputatlari Konstitutsiyaning 117-moddasiga kiritilayotgan, mamlakatimiz saylov tizimining konstitutsiyaviy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan tuzatishlarning alohida muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etdilar. Ushbu tuzatishlarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuzilishi belgilab qo‘yilmoqda. Markaziy saylov komissiyasi faoliyatining mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik, adolatlilikdan iborat asosiy prinsiplari mustahkamlanmoqda. Deputatlarning qayd etishlaricha, ko‘plab rivojlangan demokratik mamlakatlarda saylovlar ijro etuvchi hokimiyat organlari – Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi kabi vazirliklar tomonidan tashkil etiladi. Markaziy saylov komissiyasiga parlament tomonidan tuziladigan mustaqil konstitutsiyaviy organ maqomining berilishi esa fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga saylash va saylanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishni to‘liq ta‘minlaydigan saylov tizimini yanada demokratlashtirish, shuningdek, so‘z erkinligi, o‘z xohish-irodasini erkin bildirish borasidagi huquqlar kafolatlarini kuchaytirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

O‘zbekiston Ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhi vakillarining fikricha, Konstitutsiyaning 32-moddasiga kiritilayotgan tuzatishlarda davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati institutining mustahkamlanishi nazarda tutilgani ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar sohalardagi eng muhim vazifalarni hal etishda fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini ancha kuchaytiradi. Ushbu norma davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishini

ta'minlashda, atrof-muhitni muhofaza qilishda, sog'lom va barkamol yosh avlodni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ekologik harakatdan saylangan deputatlarning fikricha, qonun loyihasida nazarda tutilgan yangi huquqiy normalarning mamlakatimiz Konstitutsiyasiga kiritilishi parlament palatalaridan fuqarolik jamiyati institutlari bilan ishlash bo'yicha shakl va usullarni yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu munosabat bilan ko'rib chiqiladigan qonunlar loyihalarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish va ochiq muhokama qilish, ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining joylarda ijtimoiy-iqtisodiy sohada yuzaga kelgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotini eshitib borish kabi faoliyat shakllaridan yanada samaraliroq foydalanishning muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi.”¹

Konstitutsiyaga kiritilayotgan tuzatishlarning hayotga muvaffaqiyatli joriy etilishi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, ularning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirishni, siyosiy partiyalarning yuksak darajada yetuk, mamlakatimiz taqdiri va kelajagi uchun ulkan mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lishini talab qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Axborot xizmati. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati, rivojlanishi, erkinligi kafolatlari to'g'risida tahliliy ma'lumot. 01.01.2015.

XULOSA.

Qadim zamonlardan boshlab turli mamlakatlarda davlat boshqaruvini amalga oshirish maqsadida turli qonunlar qabul qilingan. Asrlar davomida ular takomillashib, turli xil nomlangan. Jumladan, “Xammurapi qonunlari”, “Drakon qonunlari”, “12 jadval qonunlari”, “Sali haqiqati“, “Buyuk ozodlik xartiyasi”, “Huquqlar to’g’risida Bill”, “Temur tuzuklari” va boshqa qonunlar mavjud bo’lgan. Konstitutsiya ham mana shu qonunlar sirasiga kiradi. Bu tushuncha dastlab XVIII asrda paydo bo’lgan. Ilk Konstitutsiya 1787-yil AQSHda qabul qilingan. Konstitutsiyalar o’z shakli va tuzilishiga ko’ra turlicha bo’lsa-da, ular davrga mos tarzda ma’lum maqsadlarini ko’zlaydi va shu bugungi kunga qadar o’z ahamiyatini yo’qotmay kelmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham uzoq tarixiy taraqqiyot yo’lini bosib o’tgan va har bir davrga mos tarzda ma’lum bir maqsadlarni ko’zlagan holda shakllantirilgan. Xususan, O’zbekiston Respublikasi tarixiga nazar soladigan bo’lsak, mustaqillikka erishgunga qadar 1918, 1920, 1927, 1937, 1978 yillarda konstitutsiyalar qabul qilingan. Zotan, ushbu konstitutsiyalar xalq manfaatlariga xizmat qilmagan bo’lsa-da, ma’lum vaqt davlat boshqaruvida amalda bo’lgan. Mustaqillik davrida 1992-yil 8-dekabr 12-chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 11-sessiyasida qabul qilingan Konstitutsiyasimiz O’zbekiston tarixida, uzoq, davomli maqsad va vazifalarimizni aniq belgilab berishda o’zining puxta o’ylangan tamoyil va qoidalari bilan ishonchli va hal qiluvchi omil bo’ldi, deb ta’kidlashga

barcha asoslarimiz bor. Ushbu konstitutsiya yuqoridagi konstitutsiyalardan tubdan farq qilib, qabul qilingunga qadar 2 marotaba xalq muhokamasiga taqdim etilib, ularning takliflari asosida 60 ga yaqin o'zgartirishlar kiritilgan holda shakllantirildi. Bu haqiqiy demokratik tamoyillarga asoslangan konstitutsiya edi. Qabul qilingan ushbu Konstitutsiya Prezidentimiz I.A.Karimov bergan quyidagi ta'rifga to'la to'kis mos keladi. "Konstitutsiya davlatning qiyofasi va nufuzini belgilab beradi. Ana shu qonunlar majmui orqali jahon davlatni davlat, millatni esa millat sifatida tan oladi. Asosiy qonunimiz xalq irodasi va shuurini, ijtimoiy ongi va madaniy darajasini aks ettiradi, zotan, uning tayyorlanishi va muhokamasida butun xalq ishtirok etdi. Konstitutsiya — xalq tafakkuri va ijodining mahsulidir"¹

Yuqorida ta'kidlanganidek konstitutsiyalarga ma'lum bir tarixiy voqealarning yuz berishi yoki hayotiy jarayonlarning rivojlanishi, jadallashuvi natijasida o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ham shu bugunga qadar 7 marotaba qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, ular 1993, 2003, 2007, 2008, 2011 (2 marta) 2014-yillarda amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar hokimiyat va boshqaruv tizimini yanada demokratlashtirish, «kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» prinsipi bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini, ichki va tashqi siyosatning strategik vazifalarini amalga oshirishdagi huquq va vakolatlarini kengaytirish, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro etuvchi organlar faoliyati ustidan qonun chiqaruvchi oliy organning, hokimiyat vakillik organlarining nazorat funksiyalarini kuchaytirish, mamlakat Prezidenti vazifalarini aniq-ravshan belgilash hamda huquqiy me'yorlar doirasida cheklash, shuningdek islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta'sirini kuchaytirish va hukumatning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mamlakatni ijtimoiy-

¹ I.A.Karimov. "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" T: "O'zbekiston" 1992-yil 36-37 betlar

iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini ro'yobga chiqarish borasidagi mas'uliyatini oshirish, davlat boshqaruv organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish maqsadlarida kiritilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga kiritilgan har bir qo'shimcha va o'zgartirishlar besabab amalga oshirilmagan edi. Jamiyat taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarilgan sari uning qonunlariga ham taraqqiyotga mos tarzda o'zgartirishlar kiritish hayotiy zaruratga aylanib boradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlarning davlat boshqaruviga taaluqli bo'lgan eng muhimlari xalq muhokamasiga taqdim etilib, ularning fikr va mulohazalarini o'rgangan holda hamda har bir o'zgartirish Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari tomonidan chuqur tahlil etilgach kiritilgan. O'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish ham jamiyat yuksalishi, aholining siyosiy ong darajasining o'sganligi, davlat boshqaruvidagi takomillashishdan dalolat beradi. Demak, O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiytiga yuz tutib, uning talablariga mos tarzda rivojlanib borar ekan Konstitutsiya va qonunlarga ham o'zgartirishlar kiritib boorish zarurdir.

SHunday ekan, bu jarayon hech qachon to'xtab qolmaydi. Uning to'xtab qolishi rivojlanishning to'xtab qolishi demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T:"O'zbekiston" 2015.
2. «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 4-5-son ,2002.
3. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 12-son.
4. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Qonun ,O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 12-son.
5. Karimov. I.A. " O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" T: "O'zbekiston" 1992-yil
6. Karimov. I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T., "O'zbekiston", 1996
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. 2010-yil 12-noyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruzasi. // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T., 1996.
9. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son.
10. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y.
11. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 16-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 y.,1-son.
13. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y.,3-4-son
14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y.,(4,5, 12son.)
15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011
16. ” Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” Xalq so‘zi,2010 yil 13 noyabr, № 220 (5135).
17. “O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 78,80,93,96 va 98 –moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi” Qonun «Xalq so‘zi» , 2011 yil 19 apreldagi 76 (5243)-soni
18. «“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga Xalq so‘zi» , 2014 yil 17 apreldagi 74 (6004)-soni
19. Saidov A H. Jahon Konstitutsiyaviy amaliyoti va O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni. T:1992.
20. O‘razayev. SH.Z.Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi.T:”Adolat”,1994-yil.
21. O‘razayev SH.Z. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi.T :”Adolat” 1995
22. Tansiqboyeva G.M,Muhammedjonov O.Z. Konstitutsiya va biz.T:”Adolat” 1997
23. Fayziyev M. O‘zbekiston Konstitutsiyasining mohiyati (o‘quv qo‘llanma).T:”Adolat” 1998
24. Saidov A, Sultonov S O‘zbekiston Konstitutsiyasi va inson huquqlari.T: 1999
25. Odilqoriyev X.T Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati T:”Sharq” 2002
26. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – davlat va jamiyat islohotining huquqiy asosi. Ilmiy amaliy konfirensiya materiallari.2002

WEB- resurslar:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Axborot xizmati.
O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati, rivojlanishi, erkinligi kafolatlari to‘g‘risida tahliliy ma’lumot. 01.01.2015.<http://www.lex.uz>.

<http://www.gov.uz>.

<http://www.google.uz>

<http://www.ziynet.uz>.

MUNDARIJA

REJA.....1

KIRISH.....2-5

I.Konstitutsiya va demokratik jarayonlar.

I.1. .Konstitutsiya tushunchasi va uning tarixi.....6-14

I.2.O'zbekistondagi demokratik jarayonlarning konstitutsiyada ifodalanishi..... 15 - 36

II. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

konsepsiyasi " va konstitutsiya.

II.1"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi " va konstitutsiyaviy islohotlar zarurati.....
.....37-46

II.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar va uning qonuniy asoslari..... 47- 56

XULOSA..... 57- 59

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....60-61